

## XUDOYBERGAN DEVONOV — O'ZBEK FOTOGRAFIYA VA KINO SAN'ATINING ASOSCHISI

Tilavova Diyora Dilmurod qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti Kompyuter grafikasi va badiiy foto ta'lif yo'naliishi 3-bosqich talabasi.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola O'zbekiston fotografiyasi va kinomatografiyasi asoschisi Xudoybergan Devonovning hayoti va ijodiy merosiga bag'ishlangan. Unda Devonovning 20-asr boshlari milliy vizual san'atga olib kirgan yangiliklari, tarixiy fotosuratlari va hujjatli filmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning milliy madaniyat va tarixiy xotira shakllanishidagi o'rni, siyosiy ta'qiblar davrida duch kelgan qiyinchiliklari va mustaqillik yillarida qayta e'tirof etilgan xizmatlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqola Devonov merosining hozirgi kungacha saqlanayotgan ahamiyatini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiastonga olib kirilgan ilk fotoapparat, tasmalarda yozilgan tarix, qadim Xiva, aholi turmush tarzi, milliy qadriyatlar, saqlab qolingga qadimgi binolar, yodgorliklar va obidalar suratlari.

### ABSTRACT

This article is dedicated to the life and creative legacy of Khudaybergen Devanov, the founder of photography and cinematography in Uzbekistan. It analyzes the innovations he introduced to national visual art in the early 20th century, as well as his historical photographs and documentary films. The article also highlights his role in shaping national culture and historical memory, the hardships he faced during political repression, and the recognition of his contributions during the years of independence. The significance of Devanov's heritage, which remains relevant to this day, is emphasized through academic sources.

**Keywords:** the first camera brought to Uzbekistan, history captured on film, ancient Khiva, lifestyle of the population, national values, preserved ancient buildings, photographs of monuments and sacred sites.

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена жизни и творческому наследию Худойбергена Девонова — основателя фотографии и кинематографии в Узбекистане. В ней рассматриваются новшества, которые он привнес в национальное визуальное искусство в начале XX века, а также его исторические фотографии и документальные фильмы. Также освещается его роль в формировании

*национальной культуры и исторической памяти, трудности, с которыми он столкнулся в период политических репрессий, и признание его заслуг в годы независимости. В статье подчеркивается актуальность наследия Девонова, опираясь на научные источники.*

**Ключевые слова:** первый фотоаппарат, ввезённый в Узбекистан, история, запечатлённая на плёнке, древняя Хива, образ жизни населения, национальные ценности, сохранившиеся древние здания, фотографии памятников и святынь.

## KIRISH

O‘zbekiston san’at tarixida fotografiya va kinomatografiya sohasi XX asr boshlarida shakllana boshlagan bo‘lib, bu jarayon bevosita Xudoybergan Devonov nomi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaliviy texnika vositalarini o‘zlashtirish, milliy tarix va madaniyatni vizual shaklda hujjatlashtirish borasida Devonovning xizmatlari beqiyosdir. U nafaqat birinchi o‘zbek fotosuratchisi, balki ilk hujjatli filmlar muallifi sifatida ham tan olinadi. Devonovning ijodiy merosi — o‘zbek xalqining o‘tmish hayoti, urfatatlari va me’moriy obidalarini tarixiy manba sifatida saqlab qolgan qimmatli hujjatlardir. Ushbu maqolada Xudoybergan Devonovning hayoti, ijodi, ilmiy-ma’naviy merosi hamda uning milliy san’at tarixidagi o‘rni chuqur tahlil etiladi.

Devonov 1879-yilda Xorazm viloyatining Xiva shahrida kotib Nurmuxammad oilasida tug‘ilgan. Devonovning oilasi soda va mehribon insonlar bilan gavjum edi.



Uyi atrofida esa san’at ixlosmandlari, she’riyat shaydolari, musiqachilar va sanatkorlar yig‘ilishar edi. Ulardan Avaz O‘tar, Komil Devoniy keyinchalik Xamza Aymuzodaning erksevar she’rlari jaranglagan. Yoshligidan san’atga qiziqqan, arab va fors tillarini puxta o‘rgangan, o‘z davrining ilg‘or ziyolilaridan biri bo‘lgan.

Velgelem Palmerni fanlar buvasi deb atagan va Xudoybergan Devonov undan fotografiya sirlarini o‘rgangan.



1907-yili Xudoybergan Devonov rus madaniyatini o‘rganish maqsadida Mosskva va Peterburgga safar qilgan va u yerdan katta tasurotlar va go‘yalar bilan qaytadi. U Xorazmga XX asr mo‘jizalari kinoapparat va gramofonni olib keldi.

XX asr mo‘jizasi, bum o‘jiza orqali ko‘z oldimizda eski Xiva jonlanadi. O‘sha zamон hukmdoriga qarshi, zulm va adolatsizlikka qarshi kuraash olib bordi Devono.

Osiyo tamaddonlar, xon va beklar hukm surgan davrlarni shoir va yozuvchilar o‘z sherlarida qoralagan bo‘lsalar ularni Devonov o‘z kadrlarida fosh qildi.

Bu kunlarga yetishish uchun qanchadan qancha hurriyatparvar kishilar, otashin qalb sohiblari matonat bilan kurashdilar.

Devonov o‘z zamonasining ilg‘or fikr egasi Xorazm Xalq Respublikasi hukumatining a’zosi. Devonov moliya noziri, u qayerda bo‘lmasisin qanday lavozimda bo‘lmasisin hamisha kinokamerasi bilan birga bo‘ldi.

Birinchi Butun Xorazm Quriltoyi, 1920-yildan SoftKino, Kinomotografiya a’zosi bo‘lgan.

1928-yili Xudoybergan Devonov ijodining 30 yilligi nishonlandi va operatorga “Xorazm Respublikasining mehnat ordeni” va faxriy yorlig‘i berilgan.





Xozirgi kunga qadar Xorazmning ko‘xna devorlarida inson va jonivorlarning tasvirlari tushirishni man etuvchi shariat so‘zлari saqlanib qolgan. Bunday yozuvlar bir vaqtlar yosh Xudoybergan suratchi oldida qanchadan qancha to‘sinqinliklar yaratgan edi. Kinomotagrafiyamizning qaldirg‘och arbobi nomi bilan atalgan kinoteatrغا olib boruvchi yo‘l hamisha ser-qatvov hamisha gavjum bo‘lgan. Kioteatr oldidagi mahsus afishalar uchun joylarda hattoki uning surati ham turar edi.

Bu surat 70 yil oldin olingan Bekajon Otajonova Xudoybergan Devonovning rafiqasi.

Hozirgi kunga kelib ham Xudoybergan Devonov uzoq Peterburgdan olib kelgan mo‘jizalar bilan uchrashamiz.

Devonovning ilk suratlari Xiva shahrining me’moriy obidalari, tarixiy shaxslar va xalqning tur mush tarzini hujjatlashtirgan tasvirlaridan iborat. Ayniqsa, Xiva amiri Isfandiyorxon va uning saroyi a’zolari suratlari, shuningdek, xalq bayramlari, bozorlar va mehnat jarayonlarini aks ettirgan suratlar o‘z davri uchun muhim vizual hujjat bo‘lib xizmat qiladi.





1908-yilda u tomonidan suratga olingan hujjatli film O‘zbekistondagi ilk kino asari sifatida e’tirof etiladi. Bu filmda Xiva hayoti, qadimiy urf-odatlar va xalqning kundalik hayoti tasvirlangan. Devonov kinematografiyaning faqat texnik emas, balki madaniy-ma’naviy ahamiyatini ham chuqur anglagan ijodkor edi.

Afsuski, 1930-yillar oxirida boshlangan siyosiy repressiyalar natijasida Xudoybergan Devonov nohaq ravishda “xalq dushmani” sifatida hibsga olinadi va 1940-yilda vafot etadi. Uning nomi uzoq yillar davomida ommadan yashirilgan bo‘lsa-da, mustaqillik yillarda ijodiy merosi qayta tiklandi va o‘zbek san’ati tarixida munosib o‘rin egalladi.

Bugungi kunda Xudoybergan Devonov nomi O‘zbekiston tarixida birinchi fotograf va kinoijodkor sifatida ehtirom bilan tilga olinadi. Uning suratlari va filmlari milliy madaniyatimizning beباho boyligi, vizual hujjatli tariximizning asosi sifatida baholanadi.

Xudoybergan Devonovning fotografiya va kino san’atidagi xizmatlari nafaqat o‘zbek, balki butun Markaziy Osiyo madaniyatida katta o‘rin tutadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, Devonov 1908-yilda Xiva amirligi hukmdori Isfandiyorxon tomonidan Germaniyaga yuborilgan va u yerda zamonaviy fotografik texnologiyalar bilan tanishgan (To‘raev, 2005). U Germaniyadan qaytgach, birinchi bo‘lib O‘zbekistonga fotoapparat va kinokamera olib kirgan va ularni amaliyotda qo’llagan (Karimov, 2010).

## XULOSA

Xudoybergan Devonov — o‘zbek fotografiyasi va kinosining peshqadamlaridan biri sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan siymodir. Uning ijodiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan: suratlari va kinolavhalari o‘zbek xalqining 20-asr boshlaridagi ijtimoiy-madaniy hayotini hujjatlashtiruvchi noyob manbalar hisoblanadi. Devonovning ilm-fanga, san’atga bo‘lgan fidoyiligi, texnik yangiliklarga ochiqligi va Vatanga sadoqat bilan xizmat qilganligi zamonaviy ijodkorlar uchun ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Uning nomi va asarlari mustaqil O‘zbekistonning madaniy merosini yanada boyitib, kelajak avlodlarga tarixiy haqiqatni yetkazishda muhim vosita bo‘lib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To‘raev, B. (2005). Xudoybergan Devonov — o‘zbek fotografiyasining ildizlari. Toshkent: O‘zbekiston san’ati nashriyoti.
2. Karimov, D. (2010). Milliy kino san’atining ilk qadamlarida. “San’at” jurnali, 4(22), 15–18.
3. Hujjatli film 1970 yilda yaratilgan (10:00), unda Hudoybergan Devonov tomonidan 1908 yilda suratga olingan lavhalar namoyish etilgan.
4. Hudoybergan Devonov (1879-1940) - birinchi o‘zbek fotosuratchisi va kinotasvirchisi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi. (2021). O‘zbek kinosining tarixiy ildizlari: Devonov merosi. Toshkent: Milliy kinoarxiv.
6. <https://uzreport.news>
7. <https://centralasia.news>